

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

# IJDODIY PARVOZ

2024-yil may № 5 (132) [dsmi.uz](http://dsmi.uz) [nashriyot@dsmi.uz](mailto:nashriyot@dsmi.uz) [t.me/dsmi\\_uz](https://t.me/dsmi_uz)

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING  
MA'NAVİY-MA'RİFIY, İLMİY, İJTİMOİY GAZETASI



Nodirbek  
SAYFULLAYEV

O'zbekiston davlat san'at  
va madaniyat instituti  
rektori etib tayinlandi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov raisligida yig'ilish o'tkazildi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga ko'ra, Nodirbek Baxtiyorovich Sayfullayev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori etib tayinlandi.

Tayinlovga qadar Nodirbek Sayfullayev Prezident Administratsiyasi madaniyat va san'atni rivojlantirish sho'basi mudiri lavozimida faoliyat olib borayotgan edi.

— “Avvalambor, shunday ahil jamoa bilan ijobjiy yutuqlarga erishish uchun yuksak ishonch bildirgan muhtaram Prezidentimizga chuqur minnatdorchiligidagi izhor qilmogchiman.

Mana shu dargohda ishlab, yangiliklar qilishni sharaf deb bilaman. Ijodkorlar bilan ishlash insonga boshqacha tuyg'u baxsh etadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Respublikadagi yagona oliyoh hisoblanadi. Shu bois, bu yerda faoliyat olib borishning ulkan ma'suliyatli bor.

Oldinda turgan vazifalarimiz bisyor. Bitta inson, bitta rahbar hech narsaga erisha olmaydi. Qachonki yagona maqsad sari birlashar ekanmiz, har qanday muammoni bartaraf etib, g'alabaga erishamiz. Soha bo'yicha malakai kadrlar tayyorlash – eng oliy maqsadimiz. Bu borada fidoyilik bilan, halol va vijdonan ishlashga va'da beraman” – dedi Nodirbek Sayfullayev.

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov hamda Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otobek Hasanov yig'ilishda ishtirok etib, Nodirbek Sayfullayevni tayinlangan yangi mas'uliyatlari vazifa bilan tabriklashdi va kelgusi ishlariga omad tilashdi.

## Mutafakkirlar asarlarini ilmiy o'rganish yo'lida...

“Shunday ulug' olim dastlab qachondan boshlab va qanday asarlar bitgan?” degan savolga muallif: “Makka va Madina shaharlarida muqim yashab, hadis, tafsir, fiqh bilimdonlari davralarida o'z bilimini chuqurlashtirib, mujodalva bahslarda tajriba, salohiyati orta boshlagach, 18 yoshlardan boshlab o'zining «Kazoyi as-saxoba va-tobe'in” hamda “At-Tarix al-Kabir” ilmiy kitoblarini Payg'ambar maqbarasi yonida yozib bitirganlar”, deya javob beriladi.

Bugungi sonda:

3

## Mutafakkirlar ijodida boshqaruva san'ati

Masalan, u ziyorilar to'g'risida shunday deydi: “Haqiqiy ziyoli haqiqat tayanchi bo'ladi. Agarki, olamda donishlar bo'limganida edi, yerda rizq-ro'z ummas edi. Ularning ziyosi xalq yo'lini yorituvchi mash'aldir”.

4

## Karimjon Azimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi o'tkazildi

Ustoz uzoq yillar davomida institutda orkestr-dirijorligi kafedrasi mudiri va fakultet dekani sifatida samarali faoliyat olib borib, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi.

8



ABDULLA ORIPOV,  
xalq shoiri

## XOTIRA

Mag'ribda yovuzlik ko'targanda bosh,  
Siz sodiq qoldingiz ezgu niyatga.  
Yomg'ir yopinchig'u yostig'ingiz tosh,  
Qalqon bo'loldingiz insoniyatga.

Ona yurt bag'ridan juda ham yiroq,  
O'zga manzillarda topshirdingiz jon.  
Hanuz ko'ksimizni tirnaydi firoq,  
Garchi siz muzaffar, g'olib, qahramon.

Garchi Vatan sizni hamisha yodlar,  
Lekin armoningiz sig'mas qabrga.  
Hali tug'ilмаган ne-ne zuryodlar,  
Barchasi ketdilar siz bilan birga.

Zaminda charx urar ruhingiz bedor,  
Qolgan tiriklarning tinchini o'ylab.  
Charx urar, Chotqolga termulgancha zor,  
Qarshining bepoyon dashtlari bo'ylab.

Ozod O'zbekiston bosh egib bu kun,  
Shahid farzandlarin nomini yo'qlar.  
Qay biri bedarak, qay biri beun,  
Uzoq sarhadlarda jimgina uxlar.

Manguga timishdir qalb tug'yonlari,  
Endi xotirangiz yo'ldoshdir bizga.  
Xalqimning fidoyi mard o'g'onlari,  
Allohning rahmati yog'ilsin sizga.

1994 YIL

# YANGI O'ZBEKISTON —



Bugungi kunda oliy ta'limgan asosiy maqsadi Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi taraqqiyotini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlarining, ta'lim tizimi safidan munosib o'rinnegallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishdir.

Ayniqsa, dars jarayonlarini tashkil etish, amaliyat va nazariyaning mutanosibligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu orgali mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarini talabalari o'z sohasining bilimdoni, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadr bo'lib yetisha oladilar. O'zbekistonning ham xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan dadil, mustaqil fikrli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ezgu insoniy sifatlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlab, shu yo'lda dadil qadam tashlamoqda.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarning

intellektual salohiyatini oshirishda, innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishirish, kasbiy sifatlarini shakllantirish, tafakkur qobiliyati mohiyatini tushuntirishi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham ta'lim samaradorligiga erishish, nazariy va amaliy mashg'ulotlari jarayonida ilg'or pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish ishlarini takomillashtirish bo'yicha e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Oliygochning "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasini v.v.b. dotsenti Mo'minmirzo Xolmo'minov tomonidan "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" 1, 2 va 3-bosqich kursda tahsil oluvchi iqtidorli talabalaridan tashkil topgan 3 ta jamaa ya'ni, "Rahbarlar",

"Yangi O'zbekiston madaniyat menejerlari", "Creator" jamoalari "Yangi O'zbekiston – madaniyat menejerlarini kashf etamiz" loyihasining 2-faslida babs olib borishdi. Ushbu loyiha jamoalar kreativlikka asoslangan, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalangan holda 6 ta shart bo'yicha o'zaro bellashishdi.

Ushbu loyiha madaniyat va san'at sohasida ko'p yillar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilgan marhum ustoz, professor Azamat Haydarovning xotirasiga bag'ishlandi.

Qizg'in tarzda bo'lib o'tgan bahsda "Yangi O'zbekiston madaniyat menejerlari" jamoasi 1-o'rinni, "Creator" jamoasi 2-o'rinni, "Rahbarlar" jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritishdi. Undan tashqari loyiha "Yangi O'zbekiston madaniyat menejerlari" jamoasi a'zosi O'tirqulov Bexruz "Eng faol erkak menejer", "Creator" jamoasi sardori "Ortiqboyeva Oqila "Eng faol ayol menejer" nominatsiyalarini qo'lga kiritishdi.

"Loyihamizdan ko'zlangan asosiy maqsadimiz, iqtidorli madaniyat va san'at

menejerlarni aniqlash, ularni kreativ fikrlashga o'rgatish, talabalarimizda boshqaruv va rahbarlik san'atiga yanada qiziqish uya'otish, o'z fikrlarini loyiha aylantirishda ko'maklashish, shuningdek, jamoada liderlik salohiyatini oshirish", – deb ta'kidlaydi loyiha muallifi Mo'minmirzo Xolmo'minov.

Institut va hamkorlar tomonidan jamoalarga pul mukofoti, esdalik uchun sovg'alar va diplomlar berildi. Loyerha O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" va "Madaniyat va ma'rifat" kanallari tomonidan efigra olindi.

Loyerha hamkorlik qilgan tashkilotlarga institut rahbariyatining tashakkurnomalari topshirildi.

## INSON – aziz, xotira – MUQADDAS

Nuroniylarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni holidan xabar olish, ularni har tomonlama q'llab-quvvatlash kasaba uyushmalarida an'anaga aylangan. Yurtimizning bugungi tinch-osoyishta hayoti uchun jasorat ko'rsatib fido bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasini yod etish esa, eng oliy vazifamizdir. Zero, "Inson aziz, xotira-muqaddas".

Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqimiz. Buyuk milliy-ma'naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi. 9-mayni Xotira va Qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

Xotira va qadrlash – xalqimizning asriy qadriyatlari, ulug' fazilatlaridan biridir. El-yurtining tinchligi, osoyish-taligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar hamisha xalqimiz ardog'iда. Ana shunday mardlik va jasorat namunasini ko'rsatganlarga, jang maydonlarida jonini fido qilgan bobolarimiz, sabr-bardosh bilan

katta qiyinchiliklarni yengib o'tgan momolarimizni sharaflash, xotirasini abadiylashtirish, ularga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish mustaqililik yillarda yangicha ma'no-mazmun bilan boyidi.

9-may – Xotira va Qadrlash kuni ikkinchi jahon urushining ayanchli oqibatlarini unutmashlikka, tinchlik va osuda hayotning qadriga yetishga, Vatanga sadoqat hissi bilan yashashga, shuningdek, doimo ogoh va hushyor bo'lishga, tarixiy xotiraga sadoqat ruvida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda. Muxtasar qilib aytganda, ajodollar ruhiga hurmat xalqimizning eng oliy fazilatlaridan biridir. Xotira – muqaddas va aziz tuyg'u. Xotirlash har bir insonning yaqinlarini qadrlash, bu olamdan o'tib ketgan insonlarni eslash va ularning haqqiga duo qilishdir. Xalqimizda "Qadr etgan qadr topadi", degan naql bor. Haqiqatdan ham, inson o'zgalariga samimiyatda bo'lib, hurmat-ehtirom ko'rsatsa, o'zi ham atrofdagilarning shunday munosabatiga sazovor bo'ladı. Vatan ravnaqi, xalq osoyishtaligi uchun xizmat qilgan el fidoyilari



SHOXISTA  
ADASHBOYEVA,  
“MADANIYAT VA SAN'AT  
MENEJMENTI”  
TA'LIM YO'NALISHI  
1-BOSQICH TALABASI

esa, ezgu amallari sabab umrbod kishilar yodidan o'chmaydilar. Nomlari hamisha e'zoz bilan tilga olinib, xotiralari mangulikka muhrlanadi.



## 2024/2025-o'quv yili qabuli 5-iyundan boshlanadi

2024/2025-o'quv yilidan boshlab davlat oliy va professional ta'lim muassasalariga (kasb-hunar maktabi bundan mustasno) qabul qilish bo'yicha imtihonlar "AVVAL TEST, SO'NG TANLOV" tamoyiliga muvofiq bir vaqtda o'tkaziladi. (<https://gov.uz/edu/news/view/12474/#:~:text=5.%202024/2025,muddatda%20tanlaydi.>)

Bunda:

A) abituriyentlar o'z tanloviga ko'ra test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, **dastlab oliy ta'limgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga, so'ng professional ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tanlovda** ishtirot etadi;

B) davlat oliy ta'lim muassasalarini bakalavriatiga qabul jarayoni quyidagi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda abituriyentlar har yili **5-iyundan 25-iyunga qadar test sinovi topshirish uchun ro'yxatdan o'tadi** hamda test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lsa, ushbu imtihonni topshiradigan davlat OTMni tanlaydi (bunda ... (<https://gov.uz/edu/news/view/12474/#:~:text=birinchi%20bosqichda%20abituriyentlar,kelishilgan%20holda%20tasdiqlanadi%3B>));

**o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari iyul-avgust oylarida o'tkaziladi;**

2-bosqichda abituriyentlar test sinovlari to'liq yakunlanganidan so'ng **15 kun davomida oliy ta'lim muassasasi, bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ta'lim shaklini** tanlaydilar.

Shuningdek, kollej va texnikumlar qabulida abituriyentlar **kollej va (yoki texnikumi, kasb va mutaxassislikni hamda ta'lim shaklini** OTMlariga qabulning yakuniy natijasi e'lon qilingandan so'ng **10 kun muddatda** tanlaydilar.



# Mutafakkirlar asarlarini ilmiy o'rganish yo'lida...

Bugungi kunda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish asosiy masala bo'lib turgan bir paytda ajdodlarimiz merosini ilmiy o'rganish va keng ommaga havola qilish yosh olimlar, jurnalistlar, tadqiqotchilar oldida turgan asosiy masaladir. Ushbu maqolamiz orqali islam dining ustuni, buyuk alloma Imom al-Buxoriyning yaratgan asarlari hamda o'rnak bo'luchchi hayot yo'lini tahliliga to'xtalamiz.

Buxoriyning hayoti, qoldirgan merosiga oid keng fikr mulohazalar Najmuddin Mirmaxmudov qalamiga mansub "Imom al Buxoriy va "Al-Jomi' as-Sahih" maqolasida keng yoritib berilgan. Muallif ajdodimiz tarjimai holini bayon qilib, uning mingga yaqin ustozlarning suhabatini olgani, 600 mingdan ortiq hadis yiqqanligini aytib, Imom Buxoriy shaxsiga doir Ibn Shahbaning "Aqlom al-muxaddisiy" asarida berilgan bahoni keltiradi: "niroyatda taqvodor, Allodan qo'rqadigan zotlar edilar. Oz ovqat yer, kechalari kam uxlari, ilm olish va ilmiy kitoblar yozishga juda tirishqoq edilar. Kechasi o'n sakkiz marta yoki undan ham ko'p turib chiroqni yoqar, ba'zi hadislarni eslab, ba'zilarining ustida izlanib, aniqlashtirib olar edilar".

Al-Buxoriyning ustozlari Muxammad ibn Batgor al-Xofiz (shunday degan edilar: "Dunyoda zehni o'tkirlar to'rtta: Rayda Abu Zar'a, Nishopurda Muslim ibn al-Xajoj, Samarcanda Abdullox ibn Abdurahmon ad-Daromiy, Buxoroda Muxammad ibn Ismoildir".

Imom al-Buxoriy haqida Imom at-Termiziyning ta'rifi ham yaxshi taassurot qoldiradi: "Iroqda ham, Xurosonda ham illatlar ma'nosini, tarixini va rivoyatchilar tartibini bilishda Muxammad ibn Ismoildan olimroq odamni ko'rmadim".

N.Mirmaxmudovning maqolasida Imom Buxoriyning "Ishonchli to'plamlari" — "Al-Jomi' as-Sahih" hadislarining soni, tartibi hamda boblari, boshqa to'plamlardan farqi va boshqa kitoblari xususida keng va batafsil fikr yuritiladi. Muallif Ibn Xajar asariga asoslangan holda Imom Buxoriy to'plamlarining ketma-ket davom etuvchi hadislarning soni 344, xoshiyasida izoh bilan kelgan hadislarning soni 1341, takror kelmaydiganlari 2602, takror keladiganlari bilan soni 7397, to'plamdag'i barcha hadislarning soni 9082 taligini yozadi.

Imom al-Buxoriyning boshqa to'plamlardan farqi xususida maqola muallifi allomaning so'zlarini keltiradi: "Al-Jomi' assahih" o'n olti yil davomida tuzdim. Uni yuz ming Sahih hadislar orasidan tanlab olib, o'zim bilan Allo o'rtasida hujjat qildim". Bu kitobni alloma Rasululloh salollohu alayli vassallamning tarjimai hollarini keltirish va Qur'onne tafsir qilish, hadis, fiqh va hukum chiqarib olish uchun ham yozgan. Imom al-Buxoriy hadislarni faqat aytib o'tish bilangina kifoyalanmay, ularning fiqli, sharhi va o'rganiishi haqida ham so'z yuritadi. Gohida sarlavhani oyat yoki hadis bilan borlaydi. Natijada izlanuvchan tadqiqotchiga aylanadi.

Bundan tashqari, maqola muallifi buyuk allomaning «Katta tarix» kitobi haqida ham fikr yuritib, unda sahobalar zamonasidan o'z zamonasigacha o'tgan davr ichida hadis rivoyat qilgan kishilar 40 mingga yaqin ekanligini yozadi. Al-Buxoriyning yana «At-Tarix al-Avsat» («O'rta tarix»), «At-Tarix al-Sag'ir» («Kichik tarix») kitoblari, «Al-Adab al-Mufrad» («Adab durdonalari») nomli hadis kitoblari, «Al-Xuna», «Al-Vahdon» («Yakkalik»), «Az-Zuafox» («Zaiflar») kitoblari xususida ham to'xtaladi. Imom Buxoriy to'plamidagi kitoblar 97 ta bo'lib, har bir kitob boblarga bo'lingani, boblarining soni 3405 taga yetgani ham



ko'rsatiladi. «Bu tartibni o'rgansak, — deb yozadi N.Mirmaxmudov, — kitobning nima uchun «to'plam» deb nomlangani sababini tushunib yetamiz. «To'plam» deb hadisshunoslik tilida quydagi yetti bobni o'z ichiga olgan asarga aytildi: 1. Aqida bobi. 2. Xukmlar bobi. Z. Latif so'zlar bobi. 4. Yeyish-ichish Odobi bobi. 5. Tafsir, tarix bobi. 6. Fitnalar bobi. 7. Tarjimai hollar bobi.

Imom al-Buxoriydek ulug' zotlar o'zlarining qiziqlishi bo'yicha kitob yozib ketganlari yaxshi ma'lum. Shu bois biron masalaning hamma jihatlarini muayyan xajmdagi bitta maqolada qamrab olishga urinish ma'lumotnomasi turidagi adabiyotlarga, aytaylik, ensiklopediya yoki «Ma'naviyat yulduzlarini» kabi umumiyo ruhdagi to'plamlarga xos xususiyatdir. Ilmiy-ommabop maqola, badia va hokazo turdagi asarlar esa ana shu talabga javob berishga majbur bo'limgani uchun xam mazkur kirralardan faqat bittasini yoki unga yaqin, yondosh bir nechtasini yoritishga qaratilgani sababli fikr-e-tibor tarqoq xolda sochilib ketmay, bir nuqtaga qaratiladi, natijada masala mohiyatiga mumkin qadar chuqurroq ki rib borib, uni imkon qadar har tomonlama tavsiflashga erishiladi. Shuning uchun ham maqola (badia)ning kirish qismida o'quvchini masala bilan tanishtirish uchun zarur bo'lgan umumiyyat ma'lumotlar iloji boricha qisqa, ammo serqamrov tarzda keltirilgani xolda, darhol asosiy maqsadga o'tilib, bor diqqat-e-tibor tanlangan yo'nalishni to'laroq yoritishga qaratiladi.

Imom Buxoriy yoshligidayok hadis-shunoslik ilmiga qay tariqa kirib kelib, obru qozongani va o'sha paytdayoq oddiy xalq emas, balki mutaxassislar — ulamo muhaddislarning e'tiboriga tushib, ilk bora qanday unvonga tuyassar bo'lganini shunday ta'riflaydi: "Atoqli muhaddisning hadis ilmini qatiy ilmiy tanqidiy va tarixiy tadqiq asosida bir tizimga keltirishdag'i say-xarakatlari shu qadar xayratomo'z va ibratomuz, buni so'z bilan ifodalash



DILDORA IRGASHOVA,  
"KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI"  
TA'LIM YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

qiyin. Chunki Imom Buxoriy hali Bag'dodga endi yetib kelib, bu yerdagi muxaddislardan hadis tinglab, bahsmujodalaga kirishgan, dars bera boshlagan 16-18 yoshlaridayoq Bag'dod-Xuroson ulamo va muxaddislari uning hadislarni o'zlashtirib, isnodlarini tiklashdagi mislsiz xotira, zehn va mantiqiylik zakosini e'tirof etib, uni "Imom ul-muhaddisiy" "muxaddislarni Imomi" faxli unvoni bilan ulug'lay boshlaganlar".

"Shunday ulug' olim dastlab qachondan boshlab va qanday asarlar bitgan?" degan savolga muallif: "Makka va Madina shaharlarida muqim yashab, hadis, tafsir, fiqh bilimdonlari davralarida o'z bilimini chuqurlashtirib, mujodala va bahslarda tajriba, salohiyati orta boshlagach, 18 yoshlardan boshlab o'zining «Kazoyi as-saxoba va-tobe'in» hamda "At-Tarix al-Kabir" ilmiy kitoblarini Payg'ambar maqbarasi yonida yozib bitirganlar", deya javob beriladi.

Imom Buxoriyning hadis eshitgan shayxlari, ustozlari, shogirdlari hamda yozib qoldirgan adabiy va ilmiy merosi haqida aytadigan bo'lsak, alloma, avvalo, "Kishi ilm bobida nafaqat o'zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o'zidan past bo'lganlardan ham hadis olmaguncha, yetuk muxaddis bo'la olmaydi", degan qoidani hamisha yodda tutgan. Mana shu so'zlarga amal qilgan holda, Imom Buxoriyning o'zi hadis ilmining peshvosi bo'la turib, asrdoshlari, sheriklari, vaqt kelganda xatto shogirdlaridan ham tortinmay hadis organligi tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum. Shu munosabat bilan Imom Buxoriy: «Men bir ming saksonta muxaddisdan hadis eshitdim. Ularning hammalari "lymon — so'z va amaldan iboratdir" degan e'tiqoddagi kishilar edilar», deb yozadi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga to'xtlib o'tish maqsadga muvofiq. Imom al-Buxoriyning 1225 yillik tavallud sanasini nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilingach, qutlug' to'yga munosib tayyorgarlik tadbirleri boshlab ketildi. Barcha qatori ommaviy axborot vositalari ham xayirli ishga kamar bog'lab, xalqni har tomonlama buyuk allomaning hayoti va va

ilmiy faoliyati bilan tanishtirishga kirishdilar. Chunki hali allomalarining turli nashriyotlarda katta-kichik hajmda chop etilgan asarları haqida, shoh asari bo'lmish "Al-jomi as Sahih" kitobining qimmati nimadan iboratligi to'g'risida to'liq tasavvur uyg'onmas edi, qolaversa, kitobdag'i qisqacha kirish so'zlaridan bu haqda to'liq ma'lumot olish qiyin edi. Xuddi shu o'rinda ma'lumot va axborot vositalari yordamga kelib, ushbu asarning qiymati haqida mumkin qadar mufassalroq axborot berishga harakat qildi.

Istiqlol sharofati bilan qadriyatlarimiz tiklana boshlagach, Payg'ambarimiz o'z ummatlariga qarata aytgan so'zlar yana ularning o'ziga qaytib, mangu bisotiga aylandi. Hadislarni xalqqa yetkazish, omma orasiga keng yoyish, ma'noma mazmunini mutaxassis olimlar yordamida sharhlab borishda, shubhasiz, ommaviy-axborot vositalarining xizmati katta bo'ldi. Albatta, "Al-Jomi' as-Sahih"ning alamiyati va qiymati to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lgan kitobxonda: "Imom al-Buxoriy hadislarini to'plashdag'i xizmatlari uchungina shu qadar buyuk olim darajasiga yetganmi yo ilm-fanning sohalari bilan ham shug'ullanganmi?", "Agar shug'ullangan bo'lsa, o'sha sohalarda qanday asarlar yaratgan?" kabi savollar tug'ulishi tabii edi. Buning sababi shundaki, 1973-yili Abu Rayxon Beruniy, 1980-yili Abu Ali ibn Sinoning 1000 yillik yubileyli keng miqyosda nishonlangani olis o'tmishta yashab ijod etgan alloma bobolarimiz ilm-fanning bir yoki bir necha sohalari emas, balki hamisha juda ko'plab sohalari bilan shug'ullanishgani to'g'risida keng ommada muayyan tasavvur hosil bo'lib ulgurgan edi. "Buyuk muhaddis" maqolasining muallifi Abduqodir Zolidiy bu savollarga ham mumkin qadar qisqa, ammo muhim ma'lumotlar asosida javob berishgan: "Imom Buxoriy, yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarlardan tashqari, yana o'nlab hadis, fiqh, tarix va boshqa ilm sohalariga oid asarlar yozib qoldirgan. Ulardan eng muhimlari: "Sahobai kiromdan eshitilgan narsalar kitobi", "Fardlikni sevuvchi odobi", "Obidlar fe'l-amallari kitobi", "Mahluqlarni yaratish kitobi", "Ota-onalarning eng yaxshi sifatlari haqida kitob", "Hadis rivoyat qilishda istisno va za'iflarini aniqlash vaqtli", "Buxoro tarixi", "O'ttizliklar kitobi", "Kichik tarix majmuyi", "Buyuk tafsir" va boshqalar. Darhaqiqat, shu kitoblar nomlarining o'ziyoq Imom Buxoriy hadis, fiqh ilmlari bilan cheklanmay, boshqa dunyoviy ilmlar, masalan, tarix, geografiya bilan bog'liq fanlardan g'oyat mukammal bilimga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq allomalarining san'at, madaniyat, fiqh, din, musiqa, tasviriy san'at va me'morchilik kabi ko'plab sohalarda yaratgan asarlarini chucher o'rganib, muhokama qilish qilish hamda ular yaratgan ilmlarning butun dunyoda ilm, fan va madaniyatning barcha sohalariga zamin bo'lganligini isbotlash va shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy g'urur va ifyixor tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

# Mutafakkirlar ijodida boshqaruva san'ati

Boshqaruva faoliyati deyarli barcha sohalarni qamrab olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda yurtimizda boshqaruva sohasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shunday ekan, boshqaruva faoliyati o'zbek xalqining eng asosiy sohalardan biridir deb ayta olamiz. Boshqaruva sohasining bugungi shakllanish, rivojlanish va takomillashuvi xalqimizning qadimgi tarixidan xabar bermay qolmaydi. Ajdoddardan qolgan munosib an'analar bugungi yoshlar uchun dasturilamaldir.

Zamonaviy boshqaruvning samarali faoliyatida, islohotlarni amalga oshirishda, albatta, mutafakkirlarimizning qo'shgan hissalari katta. Bunga misol qilib, buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abu Nasr Farobi Najmuddin Kubrolarning boshqaruva sohasidagi faoliyatlarini keltirishimiz mumkin. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqaruvi kuchli bo'lgan davlatning quadratli bo'lganini ko'ramiz. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur sultanati mustahkam bo'lishi uchun avvalo, adolatli boshqaruva hamda kengash bilan maslahatlashgan holda ish olib borilganligini alohida ta'kidlash mumkin. "Temur tuzuklari" asarida keltirilishicha, Amir Temurga piri Abu Bakr Tayobodiy shunday o'git beradi: "Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saylab olmasang, sultanatinga ko'p talofat va ziyon yetkay". Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeyini va har narsaning o'chovini belgilab olish va shunga muvofiq ish tutish kerak. Sohibqiron bobomiz bu maslahatga amal qilganligini va ularning davlati gullab-yashnaganidan ham bilishimiz mumkin.

Amir Temur har bir mulozimining fikrini diqqat bilan tinglagan, chin qalbdan aytigan pand-u nasihatlarni eshitgan. To'g'ri deb bilgan maslahatlarni hayoti davomida qo'llab kelgan. Amir Temur davlatni boshqarishda doimo 4 narsaga amal qilgan: kengash; mashvarat-u maslahat; hushyorlik; mulohazakorlik va ehtiyojkorlik. Kengash va mashvaratsiz boshqarilgan sultanatda qilingan barcha ishlari xato, chiqarilgan qaror va farmonlar esa,adolatsiz bo'lishi mumkin. Natija esa, pushaymonlik va nadomatdan boshqa narsa emas.

Olimlarning fikricha, Amir Temur davlatining yuksalishida, u o'tkazgan kengashlar muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday ekan, Amir Temurning boshqaruva san'ati insonlarning fikrini bilish, ularga nisbatan adolatli bo'lish va jamoaga tatbiq qilishdan iborat bo'lgan. Hatto, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va hozirgi

kundagi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevlar o'z boshqaruva faoliyatlarida Amir Temurning "Temur tuzuklari" asaridan foydalanganlar va foydalanib kelmoqdalar.

Birgina Amir Temur bilan cheklanib qolmasdan, bu sohadagi Abu Nasr Farobi qarashlariga ham to'xtalib o'tsak. Uning nazdida boshqaruva san'ati qanday ekan? Shu savolga javob bersak. Bilamizki, Farobi har sohada ilg'or O'rta Osiyonning ulug' turkiy mutafakkiri va qomusiy olimi bo'lgan. Uning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Alloma boshqaruvni "Iste'dod va malakasiga qarab, har bir kishiga munosib vazifa berish orqali qo'l ostidagi odamlardan samarali foydalana olish quadrati", – deb e'tirof etadi. Mutafakkirlarning fikricha, tahlil va qiyoslash, doimiy kuzatish boshqaruvning, boshqaruvchining asosiy vazifasidir.

Farobi davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatlarda odob-axloq va xulq qoidalariga riosa qilishda, ta'lim-tarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak deb hisoblaydi. Shundan bilishimiz mumkinki, Farobi davlat boshqaruvida xulq, odob-axloq masalalarni birinchi o'ringa qo'ygan. Farobi qarashlari insonni o'ziga jalb etadi. Farobi asarlarida uchta mezon boshqaruv taraqqiyotining asosiy o'zagini tashkil etishi keltiriladi. Bular: fozil jamiyat, ya'ni ilm-ma'rifati jamiyat; adolatli tuzum, ya'ni adolat va haqqoniyligka asoslangan tuzum va odil rahbar, ya'ni faqat to'g'rilik va adolatni yoqlagan rahbar faoliyatdir. Farobi jamiyat rivojida madaniyatning nechog'lik o'rin tutishini "Fozil odamlar shahri" asarida keltirib o'tgan. Bunda jamiyat hayoti, odamlarning munosabatlari, xislatalarini tasvirlaydi. Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakat aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobar bo'ladi. Kishilar o'ttasida farq bo'lmaydi. Har kim o'zi istagan yoki o'zi tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Vaholanki, odamlar chin ma'noda ozod bo'ladi. Odamlarning tinchlik va erkinliklari



**ZARINA NURULLAYEVA,  
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH HAMDA  
BOSHQARISH" TA'LIM YO'NALISHI 1-BOSQICH TALABASI**

haloqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular odamlar ichida saylangan, sinalgan eng oliyanob kishilarni rahbarlikka loyiq ko'radilar. Hatto, boshqalar manfaati uchun o'z manfaatlaridan ham kechadilar. Farobining boshqaruva san'atiga doir qarashlari shunday.

Yana turkiy adib, mutafakkir, davlat arbobi "Qutadg'u bilig" asari muallifi Yusuf Xos Hojibdir. Davlat va uning boshqaruviga doir masalalar Yusuf Xos Hojib ijodida katta o'r'in tutgan. U davlat boshqaruviga xizmatini tashkil etish turlarini tasniflaydi. Jumladan, u: "Shohlikka da'yoglar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish xislatiga ega bo'ladi. Bundaylarga Allah taolo idrok, farosat, yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish uquvi bilan ham siyaydi", – deya keltirib o'tadi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib o'z asarida ko'rsatgan barcha ishlarda tajribali, yomonlikni darhol sezuvchi, oqillik bobida ibratli, zakovatli, ma'rifatga tashna kishilarga tayanuvchi, sadoqatli, adolatparvar kabi sifatlar sohibi bo'lishi shartligini ta'kidlaydi. Ayni paytda u jamiyatda ilmiy va madaniy salohiyatni adolatli davlat asoslarini yaratuvchi omil deb bilgan. Masalan, u ziyoililar to'g'risida shunday deydi: "Haqiqiy ziyoli haqiqat tayanchi bo'ladi. Agarki, olamda donishlar bo'lmaganida edi, yerda rizq-ro'z ummas edi. Ularning ziyosi xalq yo'lini yorituvchi mash'aldir". Zero, biz demokratiyanı jamiyatning yuksak madaniy shakli deb

qaraydigan bo'lsak, unda ajdodlarimiz yaratgan meros bevosita adolatli davlatning poydevoriga asos bo'la oladi. Yusuf Xos Hojib bundanda ko'p qarashlarini "Qutadg'u bilig" asarida yoritgan.

Biz yoshlar taniqli mutafakkirlarning merosini o'rganishimiz, ularning davlat taraqqiyoti va rivoji borasidagi milliy boshqaruva yo'nalishlarini belgilab, berganliklarini e'tirof etishimiz, albatta, shart va zarurdir. Ularning merosi biz uchun foya va ibratdir. Ayniqsa, ularning madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish borasidagi tavsiyalari bo'lajak rahbarlar uchun dasturilamal bo'lishi kerak. Yuqorida to'xtalib o'tgan mutafakkirlarimizga, ularning asarlariga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak.

Maktablarda boshqaruva faoliyatini tashkil etish uchun alohida shunday asarlar, yetuk shaxslar fikrlari asosida qo'llanmalar yaratish, kutubxonalarda bu asarlarni yanada ko'paytirish kerak. Zero, biz yoshlar kimlarning avlodlari ekanligimizni doimo his qilaylik. Bu asarlar shunchaki tarix bo'lib qolmasin. Ularni kelajakka tatbiq etaylik. Axir nega tarixni o'rganamiz, tarixda qilgan xatolarni qaytarmaslik uchun emasmi? Butun dunyoga O'zbekiston buyuklar yurti ekanligini biladi, biz buyuk ajdodlarimizdan faqatgina fahrlanadigan avlod bo'lib qolmasligimiz kerak, aksincha ajdodlarimiz bilim va tajribasidan foydalangan holda "Uchinchi Renessans" davrida Yurtboshimizning yonlarida "Labbay" deb turmog'imiz lozim.

## Donishmandlar deydilar:

*Qalqin, silkin, oz'ingga kel! Umidsizlik tomon borma. Umidsizlik – shaytondan, umid esa Ollohdandir.*

Shamsi TABRIZIY

*Tuzoqqa sochilgan don saxovat sanalmas.*

Jaloliddin RUMIY

*Men jahonni kezdimu, olamni xasta ko'rdim.*

Abu Ali ibn SINO

*Sevgisiz yashash oson. Ammo uningsiz hayotning ma'mazmuni yo'q.*

Lev TOLSTOI

*Har nega joningni siqma, etma dod... Na bu umr qolur, na-da bu hayot.*

Yunus EMRO

*Tafakkur va fikrlash aynan bir narsa bo'lib, har ikkisi ham moddiyatdan ayridir.*

ARASTU

*Yagona va eng mudhish xato avvalgi xatolarni tuzatmaslikdir.*

KONFUSIY

*Ertangi ishlari uchun salomatliging yaroqli va kuch-quvvating yetarli bo'lishini istasang, kundalik taoming sifatlari va yetarli bo'lsin.*

EZOP

*Men aql egalari bo'lgan matematiklar oldida bosh egaman. Biroq ko'ngil sohiblari bo'lgan adabiyotchilar oldida tiz cho'kaman.*

Albert EYNSTEYN

*Aqli so'z dur-javohirlari toj-taxtdan qimmatliroqdir.*

Abulqosim FIRDAVSIY



# Jamiyatda ayollarning o'rni

Dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari qatorida O'zbekiston Respublikasida ham ayollar va bolalarga bo'lgan e'tibor – ularning jamiyatdagi hamda davlat boshqaruvidagi o'rnni mustahkamlashning davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganida namoyon bo'lmoqda. Har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin kasb etadigan tarbiya masalasi oilada shakllanadi. Oila esa, o'z navbatida, undagi er-xotin, ota-onasi bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarning maskanidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Xotin -qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Konstitutsiyamizning 46-moddasida xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqliliklari belgilab qo'yilgan bo'lib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi faoliyatları qonun bilan himoyalangan. 2019-yil 23-avgustdagı O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar" va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga asosan ayollarning jinsi bo'yicha bilvosita kansitilishi ta'qilganib, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan ijobjiy choralar qat'iy belgilangan.

Jamiyatda ayollarni ilm-fanga bo'lgan munosabatini ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm "Olma ayollar jamiyat" tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko'nglida jamiyatning eng faol qatlami – "Olma ayol" bo'lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat. Bu borada, yurtimizda oxirgi yillarda xotin-qizlar ijtimoi-siyosiy faolligini yuksaltirish, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan: "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi Jeneva Konventsiyasi, "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari kansitilishining barcha

shakllariga barham berish to'g'risida"gi Nyu-York Konvensiyalari, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliyuyushgan jinoyatçilikka qarshi konventsiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqida"gi bayonnomasi kabi xalqaro hujjalarni misol qilib keltirish mumkin.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash masalalarda davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan 30 dan ortiq farmon va qarorlar hamda hukumat qarorlari qabul qilinganligidan bilishimiz mumkin. Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'satish o'zbek xalqiga xos oliyanob xususiyatlardan birdir. Shu ma'noda O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq. Mamlakatimizda badiiy gimnastikanı rivojlantirish dasturi qabul qilingan bo'lib, sportning ushbu nafis turi bilan shug'ullanadigan qizlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushi 47 foizga, olyi ta'limda 40 foizga, tadbirkorlik faoliyatida esa, 37 foizga yetdi. Rahbar lavozimlarda ishlayotgan ayollar ulushi 33 foizni tashkil qiladi.

Bugungi kunda 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik

qilmoqda. 2021-yilda O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yerdı. Ushbu ko'satich bo'yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqilli, farosatli, tarbiyalı ayollar qo'lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy: "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", deya ta'kidlaydi. Tariximizga bir nazar solsak, qanchadan-qancha buyuk ishlar boshida To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi ayollarning hissasi kattaligiga guvoh bo'lamiz.

Ular o'z jasorati, aql-idroki va mardligi bilan tarixga o'z ismlarini muhlab qo'yanlar. Shunday siymolar davomchilarini ekanligimizning o'zi bugungi kun xotin-qizlariga g'urur va sharaf tuyg'ularini his qilishga sabab bo'la oladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning harsohadajtimoiyi-siyosiyfaolligigabog'igan e'tibor yuksaldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagı "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmon asosida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalarining rahbar ayollarning o'quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovordir. Zamonusiyay ayol deganda, birinchi navbatda olyi ma'lumotga ega, dunyoqarashi keng, iqtisodiy jihatdan mustaqil, ma'naviyati yuksak, faol



**FOTIMA XALILOVA,  
"MADANIYAT VA SAN'AT  
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH  
HAMDA BOSHQARISH"  
TA'LIM YO'NALISHI  
2-BOSQICH TALABASI**

rahbar yoki xodim, barkamol avlodni tarbiyalaydigan mehribon ona, hurmat-ehtiromga sazovor ayol, saranjom-sarishta beka ko'z oldimizga keltiramiz. Bunday ayolning munosib ijtimoiy-siyosiy maqomini ta'minlash mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub maqsadidir. Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Zero, ayol – oila ustuni va jamiyat ko'rg'i. Oilarimiz tinch va farovon bo'lsa, jamiyatimiz, ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo'ladi.

## Ommaviy bayramlar tarixidan

Ommaviy bayramlarni o'tkazishda ikkita muhim jihatni e'tiborga olishimiz kerak. Birinchisi, bayram tadbirlarini o'tkazishdagi ijodiy yondashuvlar. Ikkinchisi, bayramning tashkilotchilik qobiliyatları. Farhod Ahmedovning "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari" kitobida ommaviy bayramlarning jamiyatda tutgan o'rni, tarbiyaviy ahamiyati haqida biz yoshlar uchun juda muhim ma'lumotlar berilgan.

Kitobda shunday muhim fikrlar qayd etilgan: Ommaviy bayramlarning ommabop bo'lishi uchun juda katta amaliy mahorat talab etilishi, bayram va tadbirlarni tashkillashtirishda eng avvalo sahnalashtirishda har bir narsaga alohida ahamiyat qaratish lozimligi haqida muhim maslahatlar berilgan. Ommaviy bayramlarning shakllanib borish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon qadimgi Yunoniston va Rimda ilk ko'rinishlari bilan namoyon bo'lgan. Albatta, Qadimgi Yunoniston va Rimda o'tkazilgan tomosha va bayramlar davrigacha ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to'g'ri keladi, lekin bular bayram emas ko'proq marosimiga



o'xshash kichik ko'rinishlar edi. Urug' va qabila bo'lib yashash mobaynida qadimgi odamlar ovga chiqish oldidan yoki ovdan o'lia bilan qaytgach butun qabila buni nishonlab bayram qilishgan, lekin bu bayramlarda ma'naviy, intelektual, ifodaviy shakllari sodda bo'lib, bayramning asoslaridan biri bo'lgan kompozitsion yaxlitlik umuman bo'lmagan. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida o'sha davrda bayramlarning umumiyo ko'rinishlari shakllana boshladi bayramlar yagona bir ssenariy asosida shakllanib bordi. Yunonistonning ko'

sonli bayramlari ichida, bog'dorchilik xudosi Dionisga bag'ishlangan bayramlar alohida o'r'in egallagan. Dionis bayramlarida asosan, quyidagi qismilarni ajratib ko'satish mumkin:

- dionisga atab qurbanlik qilish;
- yugurish, kurash, qo'shiq, raqs bo'yicha fuqarolar musobaqalari va professional mimlar jonglyorlar qiziqchilar tomoshalarini o'z ichiga olgan.

Qadimgi Rim bayramlari haqida fikr yuritganda, katta-katta maydonlarda o'tkazilgan jang tomoshalar va boshqa ko'plab tomoshalar ko'z oldimizga keladi. Shuningdek, Qadimgi Rim va yunon tomoshalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Rimda o'tkazilgan katta tomoshalar tarkibiga g'alabaga bag'ishlangan katta va kichik triumflar, dengiz janglari kabi tomoshalarini kiritish mumkin. Ommaviy bayramlar haqida so'z borar ekan, O'rta Osiyoda vujudga kelgan Navro'z bayrami hozirgi kungacha yurtimizda hamda Markaziy Osiyoda keng nishonlanadi. Navro'z bayrami haqida ilk afsonalar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida uchraydi. Bu afsonalar ilmiy qarashlar oldida ikkinchi darajalidir. Navro'z bayrami tun bilan kun tenglashishi ya'ni yangi kun demakdir.



**JAXONGIR SOBIRJONOV,  
"MADANIYAT VA SAN'AT  
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH  
HAMDA BOSHQARISH"  
TA'LIM YO'NALISHI  
1-BOSQICH TALABASI**

O'zbekistonda navro'z bayrami 1970-1990-yillar oralig'ida ham keng nishonlangan. 1978-1970-yillarda ham turli bellashuvlar, musiqiy yig'inalar, sayollar kurash musobaqalari o'tkazilib, tantana bilan nishonlangan. Xulosa qilib aytganda, ommaviy bayramlarning insonlar orasidagi o'rni shundaki, ommaviy bayramlar ma'naviy dunyoqarashi shakllantiradi va insonlar qalbida yaxshi orzu va maqsadlarni uyg'otadi.



**SHAXBOZ SHAYMARDONOV,  
“QO’G’IRCHOQ TEATR AKTYORLIGI”  
TA’LIM YO’NALISHI 4-BOSQICH  
TALABASI**

## Alam

Dard, hasratim to’kay deb yana,  
Oldim yana qo’limga qalam.  
Atrof o’zi yolg’onga to’la,  
Qilmaydimi bizlarga alam?

Do’stdan ko’ra dushmanimiz ko’p,  
Gar yiqilsak, ularga bayram.  
Ne qilsa ham dedik, doim hop,  
Qilmaydimi bizlarga alam?

Bir kam dunyo, to’lmagan dunyo,  
Yo’qchilikdan ko’zlar bo’lar nam.  
Puli borlar podshohdek go’yo,  
Qilmaydimi bizlarga alam?

Sevgida ham kelmadi omad,  
Yangilaydi ba’zilar yaram.  
Bizga kerak sabr va toqat,  
Qilmaydimi bizlarga alam?

Vaqti kelar o’zgarar bari,  
Buning bari o’tib ketar ham.  
Yaxshiliklar ko’paygan sari,  
Bizga endi qilmaydi alam.



**ELYOR NAZAROV,  
SIRTQI TA’LIM SHAKLI  
“MADANIYAT VA SAN’AT  
MUASSASALARINI  
TASHKIL ETISH HAMDA  
BOSHQARISH” YO’NALISHI  
2-BOSQICH TALABASI**



**BEHRUZ O’TKIRQULOV,  
“MADANIYAT VA SAN’AT  
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH  
HAMDA BOSHQARISH” TA’LIM  
YO’NALISHI 2-BOSQICH TALABASI**

## Pinhona sevgining Romeosiman

Visolingga yetmoq yo’llarin izlab,  
Qalbing xaritasin tuzaman sening,  
Ikkinchchi Davinchi bo’la olmasman,  
She’riy satrlarda chizaman sening.

Senga har kun yaqin bo’lmoqlik uchun,  
O’zimni tutaman “Marten Idendek”,  
Nyuton adashgan desam, kulmagan,  
Tortishish kuchi yo’q, aslida sendek.

Miyamda tug’ilar ba’zi xayollar,  
Bog’larni kez deydi bu xonim bilan,  
Balki, ishonmassan, Pushkin misoli,  
Duelga chiqaman vijdonim bilan.

Muhabbatim oppoq gullarin yoyib,  
Yuragimda ungan ko’rkam yosuman,  
Va seni sevaman g’oyibidan g’oyib,  
Pinhona sevgining Romeosiman.

## Nazm



**NARGIZA  
SHODMONOVA,  
“MADANIYAT  
VA SAN’AT  
MUASSASALARINI  
TASHKIL  
ETISH HAMDA  
BOSHQARISH”  
TA’LIM YO’NALISHI  
2-BOSQICH  
TALABASI**

## Oyqiz

Qanchalar sevding joningni berib,  
Yorning bir so’zidan gul qalbing erib,  
Endi tundek qaro qoshlaring terib,  
Oyqiz, o’zga yerga botar bo’ldingmi?

Kimga orzu eding, kimlarga armon,  
Tunlar yig’layapsan ko’z yoshing pinhon,  
Nozik nihol eding, uyingga mehmon,  
Oyqiz, o’zga yerga botar bo’ldingmi?

Kumush o’sgan yurtga kelin bo’ldim deb,  
Yigirma yoshimda guldek so’ldim deb,  
Tirikman, ammo bugun o’ldim deb,  
Oyqiz, o’zga yerga botar bo’ldingmi?

Yoring va’dasiga vafo qilmadi,  
Qadrsiz insonlar qadrin bilindi,  
Qaro ko’zing bir bor baxtdan kulmadi,  
Oyqiz, o’zga yerga botar bo’ldingmi?

Ko’ngil bog’ing kezgan nodonlar o’lsin,  
Seni yomon qilgan yomonlar o’lsin,  
Hissiz yuraklari armonga to’lsin,  
Oyqiz, o’zga yerga botar bo’ldingmi?

Yashading armonning sharobin yutib,  
Umring o’tdi zarra iltifot kutib,  
Oq libosda o’zga qo’lidan tutib,  
Oyqiz, o’zga yerga botar bo’ldingmi?

## Sevgi


To’ydim yovning nafratlaridan,  
Bu hayotning hasratlaridan,  
Ketmay baxtning sarhadlaridan,  
Ko’nglim to’ymas aslo sevgiga.

Kuylar chalib chorlagan chiltor,  
Sog’intirib yuraver dildor,  
Men har nafas ishqqa xaridor,  
Ko’nglim to’ymas aslo sevgiga.

Dard chekaman birov boqmaydi,  
Yurak qurg’ur nima xohlaydi?  
Shu xislatim ko’pga yoqmaydi,  
Ko’nglim to’ymas aslo sevgiga.

Siz zo’r bo’ling, g’araz qilmayman,  
G’iybat qiling, araz qilmayman,  
Men boylikka havas qilmayman,  
Ko’nglim to’ymas aslo sevgiga.

Qalbim ko’zgu, sizni qaratgan,  
Tuyg’ularim ifor taratgan,  
Allah meni shunday yaratgan,  
Ko’nglim to’ymas aslo sevgiga.





## Hikoya

Iroda va Qodirjon bir marta ko'rishdayoq bir-birlariga ko'ngil qo'yishdi. To'rt yil talabalik davri bu munosabatni mustahkamladi. O'qishlari tugagach, Qodirjonning uyidan borishgan sovchilar uchinchi martasida xushxabar bilan qaytishdi:

— To'y!

Ikkala yoshning ham quvonchi cheksiz edi...

Ammo bu quvonchlar turmush qurbanlarining beshinchili yili orzu-umiddan chekindi. Sabablar qidirila boshlangandan so'ng, tibbiy ko'rikning natijasi oshkor bo'lgach, poyoniga yetdi. Go'zal va aql-idrokli kelinini qanchalar yaxshi ko'rishmasin, nabira ko'rish orzusi qaynona va qaynotada kuchliroq bo'lib chiqdi.

Iroda go'zal bo'lishi bilan birga ismiga monand irodali ham edi. Turmush o'rtog'iga farzand hadya etolmasligini bilgach, bir qarorga keldi. Qodirjonning sabr qilishga undashlari, hayotini usiz tasavvur qila olmasligini qayta-qayta ta'kidlashi ham Irodani o'z fikridan qaytara olmadidi.

Bir kun ertalab uyg'ongan Qodirjon Irodanining o'rniga bolishning bir chetidan chiqib turgan bir parcha qog'ozni topdi va unda yozilgan birgina yozuvni o'qidi:

"Izlamang!"

Ammo Qodirjon bunga ko'narmidi? U Irodani izlab bordi, topdi, uya qaytish uchun ko'ndirishga harakat qildi, bo'lmadi.

Bir yarim yillik sargardonlikdan so'ng nihoyat u Iroda kutgan va kutmagan xabarni aytdi:

- Uylanyapman.

Hazin ovozda aytilgan gapga deyarli shunga yaqin, ammo sal dadil ohangda javob qaytdi:

- Baxtli bo'ling!

Ammo ko'ngil ekan...

Yil o'tmay xonadonni to'ldirgan chaqaloq yig'isi ham Qodirjonning ko'nglini to'ldira olmadidi. U Irodani izlab borishni kanda qilmadi, goh ishxonasi yonida, goh mahallasidagi ko'cha boshida kutib turardi. Irodaga Qodirjonning bu tashriflari sababli uning oilasida bo'layotgan notinchiklar, ayolini ikki marta arazlab ketib qolgani haqidagi mish-mishlar yetib borgandi. Shu sababli uning Qodirjonga: "Endi oilangiz bor, ularni tinchini buzmang, meni uniting", deb tushuntirishlari befoydaligicha qolardi.

Navbatdagi kun, Qodirjon Irodaga uni ko'rgani uyiga borishini ma'lum qildi.

Keldi...

Ammo, kutilmagan holatga guvoh bo'ldi. Uy ichidan qandaydir sho'h musiqa yangrar, bir yosh yigit o'yinga tushar, Iroda esa chapak chalgancha qiyqirib kulardi.

Qodirjonni g'azabi qo'zidi. U uya bostirib kirdi-yu, notanish yigitga musht tushirdi, keyin o'girilib Irodani yuziga tarsaki tortib yubordi.

Iroda jiqqa yosh ko'zlarini unga tikdi-yu, lekin lom-lim demadi. Kutilmagan tomoshadan hang-u mang bo'lgan yigit esa hech nimaga tushunmay bir burchakda qo'rquvdan qotib turardi.

Qodirjon shart o'girilib chiqib ketdi. Bu uning oxirgi tashrifi edi.

Oradan biroz vaqt o'tib, Qodirjon shiringina qizaloqqa ota bo'ldi.

Qiz bola boshqacha — "shum" kelarkan, kun sayin uning qiqirlab kulishlari, erkashlari, dadasini ko'rishi bilan qo'l siltab, kulishi-yu, arazlagandek lablarini cho'chchatyrib, talpinib qolishi, Qodirjonni ko'nglidagi kamliklarni biroz to'ldirgandek bo'ldi.

Qizi besh yoshga to'lgan kun bergen va'dasiga ko'ra qizini bog'da aylantirib qaytayotgan Qodirjon avtobusda o'sha mash'um kundagi yigitga ko'zi tushdi, negadir yengil titradi.

Yigit ham uni ko'rdi-yu, u tomonga yura boshladi. Qodirjon ham hayajon bilan unga qarab turardi. Yigit uni yoniga kelib salom berdi. Keyin dabdurustdan gap boshladi:

— Iroda opa bilan birga ishlardik, o'sha kuni u menga arzimas bir ishda yordamim kerakligini aytib uyga taklif qildi, bir buzilgan eshik zulfini tuzatish kerak ekan. Yumush tugatgach choyga taklif qildi, shu joyda musiqa qo'ydi va raqsga tushishimni so'radi. Ularni o'z opamdek ko'rganim uchun tortinib o'tirmadim. Shu paytda siz kelib qoldingiz. Bor gap shu. Opa oradan uch kun o'tib, ishdan bo'shab ketdi. Ketayotib, mendan uzr so'radi va negadir rahmat aytdi. Xozir sizni ko'rib, shular esimga keldi va aytishim kerak deb o'yladim. Yigitsha shularni so'zlab bo'ldi-da, yana musht yeishdan qo'rqqanidan shoshib, Qodirjondan uzoqlashdi.

Qodirjon g'alati holga tushdi, go'yo ustidan birov bir chelak sovuq suv quyib yuborgandek bo'ldi. Beixtiyor quchog'idagi shiringina qizini mahkam bag'rige bosdi. Iroda yana bir marta uchun o'zini fido qilganini tushungan edi...



**SHAHNOZA RO'ZIYEVA,  
"KUTUBXONA-AXBOROT  
FAOLIYATI" TA'LIM YO'NALISHI  
2-BOSQICH TALABASI**

Mohirjon Shohidani ranjitmaslik uchun bu mavzuda gaplashmasada, rafiqasi ich-ichidan ezilayotganini his qilib turardi, ammo kutishdan boshqa iloji yo'q, chorasziz edi. Bora-bora Shohida hatto hirgoyi ham qilmay qo'ydi.

Bir kuni u yaqin do'stlaridan birining o'g'lini sunnat to'yidan kechroq qaytdi. Har qancha harakat qilsada, yig'idan qizargan ko'zlarini berkita olmayotgan Shohidani Mohirjon yoniga chaqirdi, divanga horg'in cho'zilar ekan, sekin "Shohi, menga alla aytib ber", – deb iltimos qildi. Shohida yalt etib eriga qaradi. "Katta odamga" dedi-yu, lekin gapini davom ettira olmadidi. So'ngra ohista eri yoniga cho'kkalab bir oz jim qoldi. Ko'zlarini yumib, mungli ovozda alla ayta boshladi.

*Alla aytay qaro ko'zim,  
orom olgin alla,  
Shirin allam tinglab asta,  
uxlab qolgin alla,  
Kiprigimdan tomgan yoshta  
hayron bo'Ima alla-yo,  
Baxtimga sen, omon bo'lgan,  
xazon bo'Ima alla.  
Alla, alla, alla-yo...*

Mohirjon chuqur tin oldi. "Shohi, sen xafa bo'Ima, menga hech narsa kerak emas, oxirgi nafasimda ham seni allangni eshitib o'lsm armonim yo'q", – dedi.

– "Unday de..." Shohida gapini davom ettira olmadidi, yuzini berkitib yig'lab yubordi.

Bu hali bir navi ekan... Mohirjon kutilmaganda og'ir dardga chalinib qoldi. Unga o'pka saratoni bilan kasallangansiz, deb tashxis qo'yishdi. Bormagan joyi, uchramagan doktori qolmadi. Hammasi bu kasallikka davo yo'qligini aytishardi. Bir-biridan xavotirli kunlar o'ta boshladi.

Mohirjon kun sayin kuchsizlanib borar, Shohida esa, uning ahvolini ko'rib o'zini qo'yarga joy topolmasdi. O'zining dardini ham unutgan, boshi aylanib holsiz bo'layotganini muttasil yugur-yugurlar natijasi deb o'ylardi. Uzoq muolajalar ham naf bermadi. Mohirjon omonatini topshirdi. So'nghi marta uning oldiga kirgan Shohida, erining unga atab yozgan to'rtligini esladi...

*Bordir bir armonim, eshit, dirlabo:  
So'nghi yo'l tomonga bo'lganda ravo,  
Sevgingdan bitsam-u kafan egnimga,  
Allang jaranglasa tobutim aro!..*

Shohidaning ko'zlaridan yum-yum yosh quyulib kelardi. Judolik dardidan motamsaro boshini erining jasadi tomon egib, shivirlab alla aytishni boshladi. Lekin, allasini o'zidan boshqa biror inson eshitmadidi...

Oradan olti oy o'tib, Mohirjonning uyidan alla ovozi eshitila boshladi...

## *Yurtimizda ijod qilayotgan xonanda, kompozitor va bastakorlar diqqatiga!*

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda "O'zbekkonsert" davlat muassasasi barchamiz uchun eng ulug' va eng aziz bayram – yurtimiz mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan qo'shiqlar tanlovini e'lon qiladi.

Tanlova havaskor va professional xonandalar, shoirlar, kompozitor hamda bastakorlar Vatan, istiqlol, tinchlik va farovonlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik, o'zaro mehr-oqibat kabi yuksak insoniylar tuyg'ular tarannum etilgan yangi qo'shiqlari bilan ishtirok etishlari mumkin.

Tanlova qatnashish istagida bo'lgan ijodkorlar o'z qo'shiqlarini "O'zbekkonsert" davlat muassasasining "mustaqillik2024" telegram manziliga yo'llashlari mumkin.

G'olib deb topilgan xonandalar mustaqillik bayrami munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirdarda ishtirok etadilar va pul mukofotini qo'nga kiritadilar.

- 1 – o'rin uchun (bitta) 50 mln. so'm.
- 2 – o'rin uchun (bitta) 40 mln. so'm.
- 3 – o'rin uchun (bitta) 30 mln. so'm.

**Qadrli yurtdoshlar!** Vatan tuyg'usi ijodkor uchun chinakam ilhom manbaidir. Shunday ekan, ushbu imkoniyatdan foydalanib, o'z iqtidoringizni namoyish qilishga shoshiling!

Ijodiy ishlari joriy yilning 20-iyuligacha qabul qilinadi.

Tanlov g'oliblari 2024-yil 1-avgust kuni e'lon qilinadi.

Murojaat uchun telefon: +99871 234-24-28

## Ko'rgazmada O'zbekiston va Yaponiya manzaralari

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining ikuo Xirayama xalqaro madaniyat karvon saroyida "Buyuk Ipak yo'li ranglarda" nomli ko'rgazma ochildi. Unda ikki nafar ijodkorning 70 dan ortiq O'zbekiston va Yaponiya manzaralari aks etgan fotosuratlar namoyish qilindi.

HASAN ABDUNAZAROV



Fotosuratchi, operator Taka-aki Inada universitetni tugatgach, dunyo bo'ylab sayohat qilgan. 2006-yildan mustaqil fotograf sifatida ishlay boshlagan. Sayohat qilish asosiy ishi bo'lgan. Fotosuratlar olgan, shaxsiy ko'rgazmalar o'tkazgan.

U shunday dedi: Uzbekistonda ko'hna devorlar bilan o'ralgan shahar va uning aholisi, hayoti, bolalarning tabassumi, chiroqli naqshlar, masjid va madrasalarning rang-barang koshinlari, sahroga ko'milgan qadimiylar xarobalar, ibodat, taom, issiqqliq, quruqlik va odamni yondirgudek kuchli quyosh nurlari...

Takuya Soma geograf, etnolog, falsafa doktori. Kiota universiteti Xakubi markazining dotsenti. Ranglar bilan to'dirilgan, namoyish etilayotgan foto-kog'ozma Takuya Soma Uzbekiston va Yaponiya mamlakatlarining tabiatni, tarixi, obidalari, odamlari va an'analari aks etgan fotosuratlar barchada katta qiziqish uygotadi... Madaniy aloqalar bilan Ipak yo'li durdonalari ikkala davlat xalqlarining do'stligi va qiziqishlarini yanada mustahkamlaydi.

Ekspozitsiyadan o'rinni organ "Amir Temur yodgorligi", "Registon" maydonining yoritilishi har tunda ko'pchilikni o'ziga tortadi.



## Karimjon Azimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi o'tkazildi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida cholq'u ijrochiligi va musiqa nazariyasi kafedrasi professori Karimjon Azimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi o'tkazildi.

Unda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ustoz Karimjon Azimovning faoliyati va yorqin xotirasi haqida samimiy fikrlarini bildirib o'tdi.

Tadbirda san'atkorlar, professor-o'qituvchilar hamda iqtidorli talabalar tomonidan "Bog'larda bahor", "Arabcha popuri", "Yolg'iz cho'pon", "Yaxshilig" va boshqa qo'shiqlar ijob etildi. Kechada ustozning bir qator shogirdlari jumladan, O'zDSMI professori O'razali Toshmatov ustoz bilan bog'liq xotiralarini aytib berdi.

Karimjon Azimov 1944-yil kuni Qibray tumanidagi Baytqo'rg'on mahallasida tug'ilgan. Yoshligidan musiqa qiziqsan Karimjon Azimov Toshkent davlat konservatoriyanisiga o'qishga kirib, oliyogohna qashqar rubobi bo'yicha dotsent Feoktist Vasilyev, dirijorlik fani bo'yicha Fazliddin Shamsiddinov sindifa tahsil oladi.

Konservatoriyanı tugatgach, shu yerda O'quv bo'limida ish faoliyatini boshlaydi. Shuningdek Karimjon Azimov Toshkent davlat madaniyat institutining (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) tashkil

etilishiga ham katta hissa qo'shgan shaxslardan biri hisoblanadi. Ustoz uzoq yillar davomida institutda orkestr-dirijorligi kafedrasi mudiri va fakultet dekan sifatida samarali faoliyat olib borib, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi.

K.Azimov 1987-1992-yillari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Madaniy-ma'rifiy ishlari bo'yicha boshqarma boshlig'i, xalqaro va respublika miyosida o'tkazilgan ko'rik tanlovlari va folklor festivallarida hay'at raisi, qator chet davlatlar - Germaniya, Fransiya, Belgiya, Shvetsariya, Ispaniya va Gollandiyada o'tkazilgan "Buyuk Ipak Yo'li" festivalida O'zbekiston delegatsiyasiga rahbarlik qildi.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi O'quv yurtlar va ilmiy muassasalar boshqarmasiga boshliq etib tayinlandi. 1996-2002-yillarda Toshkent davlat konservatoriysi Ma'naviy-ma'rifiy va o'quv ishlari bo'yicha prorektori, 2002-2004-yillarda O'zbekiston davlat konservatoriysi rektori vazifasini bajaruvchisi lavozimlari faoliyat yuritadi. K.Azimov o'zining faoliyati davomida ko'plab o'quv-uslubiy ishlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar chop ettiргan. Bunga "O'zbekiston dirijorlari", "Xalq cholq'ulari havaskorlik orkestri bilan ishslash uslubiyoti" qo'llanmalari, yuzlab o'zbek xalq cholq'u orkestri uchun moslashtirgan asarlari, ilmiy jurnallardagi maqolalari misol bo'la oladi.



SABRINA IBRAGIMOVA,  
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI  
TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH"  
TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

Avvalambor, internet tarmog'ining tarixiga nazar soladigan bo'lsak. Internetni qurish tamoyillari birinchi marotaba 1969-yilda AQSh harbiy agentligi DARPA buyrug'i bilan yaratilgan. ARPANET yutuqlaridan foydalanib, 1984-yilda AQSh milliy fan fondi universitetlari va kompyuter markazlari o'rtaSIDagi aloqa uchun NSFNET tarmog'ini yaratdi. Yopiq ARPANETdan farqli o'laroq, NSFNETga ularish nisbatan bepul edi va 1992-yilga kelib, unga 7500dan ortiq kishi kichik tarmoqlar jumladan 2500 tasi AQShdan tashqarida ulangan.

**Insonlar ongini zaharlayotgan ITIMOIY TARMOQLAR**

Bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan, insonlarni o'ziga jaib qila olgan internet tarmoqlaridir. Hamma narsaning ikki ko'rinishi bor bo'lganidek, internetdan ham yaxshi va yomon yo'llarda foydalanish imkoniyati mavjud.

e'tibor beradigan bo'lsam, bilim olishga, hayotga eng asosiyi kasbiga qiziqadigan yoshlar yo'q yoki kam. Ko'zlar yonib, ilmga chanqoq talabalar kamdan-kam.

Insonlarga va o'zimga iltimosim hayot qisqa, undan unimli foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolmasligimizni so'ragan bo'lar edim. Ko'proq kitobga mehr qo'ysak, kitob o'qisak hayotimiz ham, qiziqishlarimiz ham o'zgararmidi... Ijtimoiy tarmoqlarga sarflayotgan vaqtimizning yarmini ilm olishga sarflaganimizda biz ham ijtidorli, bilmli talabalar qatorida bo'larmidik.

### Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti



Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDSHEV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV

Hamdam ISMOILOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovich:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili:

Mirzo Ulug'bek tumani,

Yang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

www.dsni.uz;

nashriyot@dsni.uz

O'chami – A3, hajmi 4 bosma taboq.  
Gazeta 1.06.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2024-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinsida havola etilmoqda